



THE FEATURES OF ACCOUNTING IN AGRICULTURAL ENTERPRISES

Toreniyazov Muxammedali Miraliyevich

Head of "Ali Agro Yuksalish" LLC

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17222663>

ARTICLE INFO

Received: 13rd September 2025

Accepted: 28th September 2025

Online: 29th September 2025

KEYWORDS

Agriculture, accounting, seasonality, animal husbandry, crop farming, fixed assets, product cost, subsidies, incentives.

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the distinctive aspects of accounting in agricultural enterprises. Specifically, it highlights the factors of seasonality, the existence of multi-branch activities, the utilization of fixed assets, the perishability of products, and the role of state subsidies and incentives in accounting. Furthermore, the theoretical foundations and practical challenges of agricultural accounting are examined, with their significance substantiated through tables and analytical explanations.

QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toreniyazov Muxammedali Miraliyevich

"Ali Agro Yuksalish" MCHJ rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17222663>

ARTICLE INFO

Received: 13rd September 2025

Accepted: 28th September 2025

Online: 29th September 2025

KEYWORDS

Qishloq xo'jaligi, buxgalteriya hisobi, mavsumiylik, chorvachilik, dehqonchilik, asosiy vositalar, mahsulot tannarxi, subsidiyalar, imtiyozlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos jihatlari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, mavsumiylik omili, ko'p tarmoqli faoliyatning mavjudligi, asosiy vositalardan foydalanish, mahsulotlarning tez buziluvchanligi hamda davlat subsidiyalari va imtiyozlarining hisobdagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi buxgalteriyasining nazariy asoslari va amaliy muammolari ko'rib chiqilgan, jadval va tahliliy izohlar orqali ularning ahamiyati asoslab berilgan.

Kirish. Qishloq xo'jaligi – mamlakat iqtisodiyotining eng muhim sohalaridan biri bo'lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy manba hisoblanadi. Shu sababli qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobining o'rni beqiyosdir.



Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular mazkur sohaga oid nazariy va amaliy yondashuvlarni qamrab oladi. Jumladan, Do'smuratov R.D. o'zining "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" asarida hisob yuritishda nazariy tamoyillarni shakllantirish, xarajat va daromadlarni davrlashtirishning metodologik asoslarini ko'rsatib o'tadi. Ushbu asar qishloq xo'jaligi hisobini tashkil etishda nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi [1].

Hoshimovning "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" kitobida esa moliyaviy natijalarni hisoblashda real amaliyotga yaqin yondashuvlar, ayniqsa mahsulot tannarxi va foydani aniqlash masalalari yoritilgan. Bu jihatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dolzarb hisoblanadi [2].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish masalasiga turli jihatdan yondashilgan: nazariy asoslarni mustahkamlash, amaliy usullarni qo'llash, ishlab chiqarish tannarxi va asosiy vositalar hisobini to'g'rilash hamda davlat subsidiyalari va imtiyozlarining buxgalteriya hisobotidagi o'rnini aniqlash. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar ilmiy asos yaratish bilan birga, qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini samarali yuritishga ham xizmat qiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligi boshqa sohalardan farqli o'laroq, tabiat sharoitlari va mavsumiylikka bevosita bog'langan. Masalan, paxtachilikda xarajatlarning katta qismi bahor va yoz oylarida amalga oshiriladi, biroq daromadlar kuzda yoki qishda, ya'ni hosil yig'ib olingachgina shakllanadi. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi nafaqat hujjatlashtirish, balki moliyaviy oqimlarni to'g'ri davrlashtirish, xarajatlarni asosli tarzda taqsimlash va natijalarni aniqlashda ham asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi to'liq ravishda fasllarga bog'langan bo'lib, bu moliyaviy hisobotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bug'doy yetishtirishda xarajatlar urug'lik, mineral o'g'it, yoqilg'i va texnika xarajatlari ko'rinishida bahor faslida to'planadi. Daromad esa kuzda hosil yig'ib olinib sotilgachgina tushadi. Shunday ekan, buxgalteriya hisobida xarajatlarni davrlashtirish, ya'ni ularni kelajakdagi daromad bilan bog'lash zarur. Aks holda, korxonada faoliyatida moliyaviy natijalarni noto'g'ri ko'rsatish xavfi yuzaga keladi [4].

Qishloq xo'jaligi korxonalarini ko'pincha bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullanadi. Masalan, Andijon viloyatidagi yirik fermer xo'jaligi nafaqat paxta va g'alla yetishtiradi, balki chorvachilik, bog'dorchilik va baliqchilik bilan ham shug'ullanadi. Shunday korxonalarda xarajatlarni alohida tarmoqlar kesimida yuritish zarur, chunki dehqonchilikdagi xarajatlar chorvachilik yoki baliqchilik natijalariga qo'shib yuborilsa, mahsulot tannarxi noto'g'ri shakllanadi. Natijada boshqaruv qarorlari ham xato qabul qilinishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi faoliyati yer, sug'orish tizimlari, texnika va transport vositalariga bevosita bog'liq. Shu bois asosiy vositalarning to'g'ri baholanishi, ularning eskirishini hisoblash va samaradorligini tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, Namangan viloyatida 20 yil davomida ishlatilgan eski traktorlar yuqori xarajat talab



qilgani sababli yangi texnikalarga almashtirilgan. Buxgalteriya hisobida eskirishni to'g'ri hisoblash orqali bu jarayon moliyaviy rejalashtirishda aniq ko'rsatkichlarni beradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining katta qismi – sabzavot, meva, sut va go'sht mahsulotlari – qisqa muddatda iste'mol qilinishi lozim. Shu sababli buxgalteriya hisobida omborxonalar nazorati va zaxiralarni hisobga olish alohida o'rin tutadi. Masalan, Farg'ona viloyatidagi meva-sabzavot yetishtiruvchi korxonada sovutgich omborlari yo'qligi sababli 15% mahsulot yo'qotilgan. Bu esa buxgalteriya hisobotida zarar sifatida aks ettirilgan. Demak, to'g'ri hisob yuritish nafaqat moliyaviy natijani, balki korxonalar ichki boshqaruv qarorlarini ham belgilaydi.

Qishloq xo'jaligi sohasida davlat qo'llovi keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Xususan, urug'lik, mineral o'g'it, yonilg'i va texnika xaridiga subsidiyalar, shuningdek, kredit va soliq imtiyozlari berilmoqda. Masalan, 2022-yilda O'zbekiston hukumati tomonidan chorvachilikni qo'llab-quvvatlash uchun 500 mlrd so'm subsidiya ajratilgan. Buxgalteriya hisobida ushbu moliyaviy yordam alohida modda sifatida aks ettirilib, hisobotlarda ochiq ko'rsatilishi lozim. Bu nafaqat shaffoflikni ta'minlaydi, balki davlat mablag'laridan oqilona foydalanishni ham nazorat qiladi.

Jadval 1: Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining asosiy jihatlari

No	Xususiyatlar	Amaliy ahamiyati	Misol
1	Mavsumiylik	Xarajatlar yilning ma'lum davrida jamlanadi, daromad esa hosildan keyin olinadi	Paxta va bug'doyda xarajat bahorda, daromad kuzda
2	Ko'p tarmoqli faoliyat	Xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha ajratish zarur	Fermer xo'jaligi: dehqonchilik + chorvachilik
3	Asosiy vositalarga bog'liqlik	Yer, texnika va sug'orish tizimlari samaradorlikni belgilaydi	Eski traktorlar o'rniga yangi texnika xaridi
4	Mahsulotlarning tez buziluvchanligi	Omborxonalar va zaxira hisobi yo'qotishlarni kamaytiradi	Sovutgich yo'qligi tufayli meva-sabzavot yo'qotish
5	Davlat qo'llovi va imtiyozlari	Subsidiyalar va kreditlar alohida hisobda yuritilishi kerak	Chorvachilik subsidiyalarining hisobotda ko'rsatilishi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu jarayon mavsumiylik, ko'p tarmoqli faoliyat, asosiy vositalardan foydalanish, mahsulotlarning tez buziluvchanligi va davlat qo'llovi kabi omillarga bevosita bog'liqdir. Amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish nafaqat moliyaviy natijalarni aniq ko'rsatadi, balki korxonalar ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.



Kelgusida, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, avtomatlashtirilgan dasturlardan foydalanish va xalqaro buxgalteriya standartlarini qo'llash qishloq xo'jaligi hisobini yanada shaffof va samarali qilish imkonini beradi.

References:

1. Do'smurotov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2007. -351 b.
2. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: «Yangi asr avlodi», 2004.-279 b.
3. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. –T.: «Sharq» NMAK, 2004. – 592 b.
4. Ostonaqulov M., Ostonaqulov U., Ostonaqulov G. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti, 2005. – 367 b.
5. G'ulomova F. Buxgalteriya hisobi (o'quv qo'llanma). –T.: «Mehnat», 2001.